

OG'IR HAYOTIY VAZIYATLARGA TUSHIB QOLGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK MUHIM JIHATLARI

Toshboboyeva Nozima Qudiratovna

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 308-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur mavzuda og'ir hayotiy vaziyatlarga duch kelgan bolalar bilan ishlashning psixologik jihatlari, ularning ruhiy holatini tushunish, qo'llab-quvvatlash va moslashuvini ta'minlash yo'llari yoritiladi. Bunday bolalar ko'pincha stress, qo'rquv, ishonchsizlik va emotsional beqarorlikni boshdan kechiradi. Maqolada psixologik yordam ko'rsatish usullari, profilaktik yondashuvlar hamda oila va maktab hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: og'ir vaziyat, bola psixologiyasi, stress, travma, qo'llab-quvvatlash, moslashuv, psixologik yordam

KIRISH

Og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bolalar bilan ishlash alohida e'tibor va nozik yondashuvni talab etadi. Bunday vaziyatlarga oilaviy muammolar, yaqin insonni yo'qotish, ijtimoiy qiyinchiliklar, zo'ravonlik yoki keskin o'zgarishlar kiradi. Ushbu holatlar bolaning ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, uning xulq-atvori va emotsional holatida o'zgarishlar yuzaga keltiradi.

Bunday bolalarda ko'pincha xavotir, qo'rquv, tortinchoqlik, agressivlik yoki befarqlik kabi holatlar kuzatiladi. Ayrim hollarda ular o'z muammolarini ifoda eta olmaydi, bu esa ichki ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli psixolog uchun eng muhim vazifa — bolaga ishonchli muhit yaratish va uni tushunishga harakat qilishdir.

Psixologik yordam ko'rsatishda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning holati o'ziga xos bo'lgani uchun, unga mos metodlar tanlanishi zarur. Suhbat, o'yin terapiyasi, art-terapiya kabi usullar bolaning ichki kechinmalarini yengillashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, bolani qo'llab-quvvatlashda oila va maktabning roli katta. Ota-onalar bolaga mehr va e'tibor ko'rsatishi, uning his-tuyg'ularini inkor etmasdan qabul qilishi kerak. O'qituvchilar esa bolaning holatini inobatga olib, unga nisbatan sabrli va tushunuvchan bo'lishi lozim.

Og'ir hayotiy vaziyatlardan chiqishda bolada ijobiy fikrlashni shakllantirish, uning kuchli tomonlarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Bu jarayonda kichik yutuqlarni ham e'tirof etish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Og'ir hayotiy vaziyat – bu jismoniy, ma'naviy, axloqiy, intellektual, emotsional rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, u o'z kuchlari bilan yengib o'ta olmaydigan holat.

Olimlarning ta'kidlashicha, **og'ir hayotiy vaziyat** – bu: vaqtinchalik, obyektiv yoki subyektiv sabablar bilan yuzaga kelgan holat;

- inson hayot davrida muqarrar yuz beradigan, kuchli emotsional zo'riqish va stress keltirib chiqaradigan voqea;
- muhim hayotiy maqsadlarni amalga oshirishda to'siq bo'ladigan, odatiy vositalar orqali yengib bo'lmaydigan holat;
- shaxsning hayotiy faoliyatini obyektiv ravishda buzuvchi holat;
- shaxsiy ichki rag'batlar (motivatsiyalar, intilishlar, qadriyatlar)ni amalga oshirish imkoniyatining yo'qolishi sifatida namoyon bo'ladi.

Og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bola – bolaning normal o'sishi va ijtimoiy moslashuviga to'sqinlik qiluvchi, uning shaxsiy rivojlanishiga xavf soluvchi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tibbiy yoki shaxsiy muammolar yig'indisidir. Og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bolalar toifasiga quyidagilar kiradi: Qurolli va millatlararo mojarolar, ekologik va texnogen halokatlar, tabiiy ofatlar qurboni bo'lgan oilalar farzandlari – harbiy harakatlar, millatlar o'rtasidagi to'qnashuvlar, yirik sanoat avariylari, ekologik muammolar yoki yer qimirlashi, sel, yong'in, qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlar oqibatida jabr ko'rgan va og'ir hayotiy sharoitda qolgan oilalarning bolalaridir. Ushbu bolalar jismoniy yoki psixologik travmalarga duch kelgan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj va o'z

rivojlanishida turli to'siqlarga uchragan guruh hisoblanadi.

Qochqinlar va majburiy ko'chirilgan oilalar farzandlari – o'z mamlakatining ichida yoki tashqarisidagi harbiy harakatlar, siyosiy ta'qib, millatlararo mojarolar, diniy nizolar, inson huquqlari buzilishi yoki boshqa turdagi xavfli holatlar tufayli o'z doimiy yashash joyini ixtiyoriy ravishda emas, balki majburiy ravishda tark etgan oilalar tarkibidagi bolalardir. Ular ko'pincha noma'lum muhitga tushib qolgan, til, madaniyat va ta'lim tizimidagi farqlar bilan to'qnash kelgan hamda doimiy stress, beqarorlik va xavotir hissida yashashga majbur bo'lgan toifadir.

Hayot uchun xavfli va ekstremal sharoitlarda yashayotgan bolalar – bu o'z hayoti, sog'lig'i va rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soluvchi og'ir, beqaror va xavfli muhitda yashashga majbur bo'layotgan bolalar toifasidir. Ularning hayoti qurolli mojarolar, tabiiy ofatlar, ekologik va texnogen halokatlar, majburiy mehnat yoki ekspluatatsiya kabi omillar ta'sirida doimiy xavf ostida bo'ladi. Bu toifadagi bolalar ko'pincha boshpana, oziq-ovqat, toza ichimlik suvi, tibbiy xizmat va ta'lim kabi asosiy ehtiyojlardan mahrum holda yashaydilar.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar – biologik ota-onasidan biri yoki ikkalasini yo'qotgan, shuningdek, turli sabablarga ko'ra ota-onasining qamoqda bo'lishi, hayot tarzi, sog'lig'i yoki huquqiy mahrumiyatlari tufayli ular qaramog'idan chiqib qolgan bolalar toifasidir. Ular qonuniy vasiylik yoki homiylikka muhtoj, davlat yoki jamoatchilik tomonidan ijtimoiy, psixologik va ta'limiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan guruh hisoblanadi. Bu bolalar ko'pincha mehr, barqaror muhit, shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi imkoniyatlar yetishmasligi bilan to'qnash keladilar.

O'z hayotiga yoki sog'lig'iga tahdid soladigan, bolalarni ta'minlash, tarbiyalash, ta'lim berish va parvarishlash talablariga javob bermaydigan sharoitlarda bo'lgan bolalar – o'zining yashash muhitida jismoniy xavf ostida qolgan, asosiy ehtiyojlari ta'minlanmagan va sog'lom rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan bolalar toifasidir. Bu kabi sharoitlarga, masalan, oziq-ovqat yetishmasligi, antisanitariya holati, isitish yoki yorug'lik yo'qligi, xavfli binolarda yashash, shuningdek, ta'lim, tibbiy xizmat va yetarli parvarish

imkoniyatining mavjud emasligi kiradi.

Ota-onasi yashash joyi bo'yicha vaqtincha bo'lmagan davrda yoki ularning o'z ota-onalik majburiyatlarini vaqtincha bajara olmasligi davrida o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilanmagan bolalar – bu ota-onasi turli sabablar (masalan, mehnat migratsiyasi, davolanish, qamoqqa olinganlik, hayotiy qiyinchiliklar va boshqalar) tufayli vaqtincha bola bilan birga yashamaydigan va shu davrda bolaning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida rasmiy vasiy yoki homiy tayinlanmagan bolalar toifasidir. Bunday bolalar nazardan chetda qolishi, beqaror muhitda yashashi va yetarli tarbiya, ta'lim yoki emotsional qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'lishi mumkin.

Nazoratsiz va qarovsiz qolgan bolalar – bu ota-onasi, qonuniy vakili tomonidan yetarli darajada nazarda tutilayotmagan, parvarish, tarbiya va muhofazasi ta'minlanmagan bolalar toifasidir. Ushbu bolalar ko'pincha o'z-o'zicha qoladi, ko'cha muhitida vaqt o'tkazadi, ta'limdan chetlashadi yoki yomon atrof-muhit ta'siriga tushib qoladi. Ular huquqbuzarlik, zo'ravonlik yoki jinoiy faoliyatga tortilish xavfi ostida bo'ladi. Nazoratsiz qolish holati ko'pincha oiladagi beparvolik, ijtimoiy muammolar, ichki muhitdagi nizolar yoki ijtimoiy muhofazaning yetishmasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy xavfli vaziyatda qolgan bolalar –bola jismoniy emas, balki ijtimoiy, ruhiy va tarbiyaviy jihatdan xavf tug'diruvchi muhitda yashovchi toifadir. Ushbu vaziyat oiladagi beparvolik, zo'ravonlik, ta'limdan chetlatilish, ijtimoiy kamsitish, nazoratsizlik yoki bolaning huquq va ehtiyojlariga nisbatan loqaydlik kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bu bolalar qonuniy vasiylari bo'lsa-da, ular tomonidan yetarli darajada muhofaza, qo'llab-quvvatlash va ta'lim-tarbiya ko'rmayotgan, jamiyatda o'z o'rnini topishda qiyinchilikka uchrayotgan shaxslardir.

Nogironligi bo'lgan bolalar, shu jumladan ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar – tug'ma yoki orttirilgan jismoniy, aqliy, sensor (eshitish, ko'rish) yoki ruhiy rivojlanishida turli xil nuqsonlarga ega bo'lgan, shu sababli kundalik hayotda to'liq ishtirok etish, ta'lim olish va jamiyatdagi tengdoshlari bilan bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishda muayyan cheklovlarga duch

kelayotgan bolalar toifasidir. Bunday bolalar jismoniy imkoniyatlar cheklanganligi, faoliyat turlarini mustaqil bajarishda qiynalishi yoki ijtimoiy munosabatlarga to'liq kirisha olmasligi tufayli alohida yondoshuv va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi.

Otasi yoki onasi (yoki qonuniy vakillari) psixik holati buzilganligi va (yoki) narkologik kasalliklar tufayli dispanser hisobiga olingan bolalar – bu bolaning qonuniy vakillari (ota-onasi yoki boshqa shaxslar) ruhiy sog'lig'idagi jiddiy buzilishlar yoki spirtli ichimliklar, narkotik, psixotrop moddalarga qaramlik kabi xastaliklar bilan rasman tibbiy kuzatuv (dispanser hisobi) ostida bo'lgan holda tarbiyalanayotgan bolalar toifasidir. Bunday holda bola yetarli darajada g'amxo'rlik, tarbiya va muhofaza olmasligi, zo'ravonlik, beparvolik yoki nazoratsizlikka duch kelishi mumkin.

Bolani yolg'iz tarbiyalayotgan otaga yoki onaga (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsga) nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo chorasi qo'llanilgan bolalar – bu farzandni yagona tarbiyalovchi shaxs (ota, ona yoki qonuniy vakil) qonun bilan ozodlikdan mahrum qilish yoki vaqtincha qamoqqa olish chorasiga duchor etilgan holda, bola qaramoqsiz, himoyasiz va beqaror ijtimoiy sharoitda qolgan toifadir. Bunday bolalar nafaqat jismoniy parvarish va ta'limdan, balki emotsional qo'llab-quvvatlash va ruhiy barqarorlikdan ham mahrum bo'ladi.

G'ayriijtimoiy xulq-atvorli bolalar – bu jamiyatda umumqabul qilingan axloqiy me'yorlar, huquqiy talablar va ijtimoiy intizomga zid ravishda doimiy ravishda buzg'unchi, xavfli yoki nomaqbul xulq-atvor namoyon etuvchi bolalar toifasidir. Ularga agressivlik, o'zini nazorat qila olmaslik, ta'lim muassasalarida qoidabuzarlik, spirtli ichimliklar iste'moli, o'g'rilik, boshqalarga tahdid qilish yoki tajovuzkorlik kabi xatti-harakatlar xos bo'lishi mumkin. Bunday xulq-atvor ko'p hollarda noqulay oilaviy muhit, e'tiborsizlik, ruhiy travmalar, nazoratsizlik yoki tengdoshlar ta'siri bilan bog'liq bo'ladi.

Fohishalik bilan shug'ullanadigan bolalar – bu moddiy yoki boshqa shaklda manfaat olish maqsadida o'zini jinsiy ekspluatatsiyaga rozi qilishga majbur

bo'layotgan yoki o'zi jinsiy xizmat ko'rsatayotgan bolalar toifasidir. Bunday holat ko'pincha bolaning nazoratsizligi, ota-onasizligi, qashshoqlik, zo'ravonlik, inson savdosi yoki uyushgan jinoyatchilik tizimiga tortilish natijasida yuzaga keladi. Bu holat bolaning hafaqat jismoniy va reproduktiv salomatligiga, balki ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham jiddiy xavf tug'diradi.

Zo'ravonlikdan jabrlangan bolalar, shuningdek, o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalar – bu jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy, axloqiy yoki kiberzo'ravonlikka duch kelgan yoki unga nisbatan bunday zo'ravonlik sodir etilishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatda bo'lgan bolalar toifasidir. Bunday zo'ravonliklar oilada, ta'lim muassasalarida, jamoat joylarida yoki internet muhitida sodir bo'lishi mumkin. Zo'ravonlik bolaning shaxsiy daxlsizligi, xavfsizligi, rivojlanishi va qadr-qimmatiga jiddiy ziyon yetkazib, uning ruhiy va jismoniy barqarorligiga tahdid soladi.

Xavf guruhiga kiruvchi bola – yuqorida qayd etilgan omillar ta'sirida bo'lishi mumkin deb baholanadigan bola.

Kompleks yordam – ta'lim, psixologik, ijtimoiy, tibbiy va huquqiy sohalarda bolaga ko'rsatiladigan muvofiqlashtirilgan yordam shakllari majmuasi.

Psixologik ko'rik – shaxsning normal hayot kechirishiga xalal beruvchi, uning xulq-atvoriga va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlariga salbiy ta'sir qiluvchi muammolarni aniqlash, shaxsga ko'rsatilishi kerak bo'lgan psixologik yordamning turini, shaklini, hajmini va muddatlarini belgilash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni baholash.

Psixologik reabilitatsiya – psixologik muammolari mavjud bo'lgan shaxsning ijtimoiy moslashishiga yordam ko'rsatish hamda unga ushbu sohadagi qobiliyatlarini tiklashda ko'maklashish.

Psixologik korreksiya – shaxsning psixologik muammolarga olib keluvchi o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvorini tuzatishga (o'zgartirishga) qaratilgan tadbirlar majmui.

Psixologik maslahat – shaxsning psixologik muammolarini tushunishga va ularni yechishda ko'maklashishga qaratilgan psixologik yordam.

Psixologik trening – insonda shaxsiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muayyan ko'nikmalarni, xulq-atvorni yoki psixologiya sohasiga taalluqli yangi bilimlarni shakllantirishga yoki uni tang (krizis) vaziyatlardan chiqarishga, shuningdek shaxsning ma'naviy kamol topishini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan mashg'ulotlar.

Individual rivojlanish marshruti – bu bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan vosita bo'lib, umumta'lim dasturini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan, jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarga kompleks yordam tizimini yaratish, ularni ijtimoiy moslashtirish va umumta'lim dasturini o'zlashtirishda qo'llab-quvvatlash xizmati.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari – davlat ta'lim standartlari bilan kafolatlangan asosiy ta'lim dasturidan tashqari ta'limga oid ehtiyojlarini har tomonlama qondirish uchun amalga oshiriladigan ta'lim xizmatlari.

Qo'shimcha rivojlantiruvchi xizmatlar – bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan va uning shaxsiy xususiyatlarini turli to'garaklar va seksiyalarda takomillashtirishga qaratilgan ta'lim xizmatlari.

Sog'lomlashtirish xizmatlari – o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash va ularni sog'lomlashtirishga qaratilgan tadbirlar majmuasi.

Qo'shimcha tashkiliy xizmatlar – ta'lim tashkilotida o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan xizmatlar.

Signal kartochkasi – bolada og'ir hayotiy vaziyat mavjudligini ilk darajada qayd etish, rasmiylashtirish va multidissiplinar guruhni xabardor etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Mazkur kartochka og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan o'quvchi to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarni tizimlashtirish, holatni hujjatlashtirish va keyingi bosqichlarda zarur yordam choralari belgilash uchun asosiy hujjat hisoblanadi.

Bolani kundalik faoliyatda dastlabki kuzatish bayonnomasi – bolaning xulqi, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlarini real vaziyatlarda kuzatish orqali baholashga xizmat qiladigan hujjatdir. Ushbu bayonnoma orqali mutaxassis bolaning ehtiyojlarini xolis aniqlab, zarur yordam shakllarini belgilash imkoniga

ega bo'ladi.

Kuzatuvlar xaritasi (L. Stott) – bolaning maktab muhitiga moslashuvi, emotsional holati, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini chuqur tahlil qilishga mo'ljallangan maxsus diagnostikaviy instrumentdir. U ushbu ma'lumotlar asosida bola uchun individual korreksion yordam strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Oila ijtimoiy pasporti – bolaning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi oilaviy muhit, munosabatlar va tarbiya uslublarini baholashga xizmat qiluvchi kompleks tahlil shaklidir. U bolaga oid aniq va xolis ma'lumotlar orqali individual reabilitatsiya va yordam choralarini belgilash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik portret – bolaning shaxsiy xususiyatlari, emotsional holati, aqliy salohiyati, xulq-atvori va ta'limga munosabati to'g'risida kompleks ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tuzilmahususiy tavsifdir. U ushbu bola bilan korreksion, reabilitatsion yoki ta'limiy ishlarni samarali rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi yashash va tarbiyalanish sharoitlarini o'rganish xulosasi – bolaning oilaviy muhiti, turmush sharoiti, tarbiya usullari va atrof-muhit omillarini tahlil qilish asosida tayyorlanadigan rasmiy xulosadir. U bolaning huquq va manfaatlari ta'minlanayotgan yoki ta'minlanmayotganini baholash hamda tegishli choralar ko'rish uchun huquqiy va ijtimoiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiy rivojlanish xaritasi – bu maqsadli ravishda loyihalashtiriladigan, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda yaratiladigan, ta'limiy va tarbiyaviy jarayonda o'zini anglash va moslashuv jarayonidagi rivojlanishini ta'minlovchi maxsus individual hujjatdir. U bolaga nisbatan amalga oshiriladigan intervensiyalar, resurslar, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash choralarini muvofiqlashtiradi, bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ochish, o'zini anglash va rivojlantirishini rag'batlantiradi.

Kompleks reabilitatsiya– bu bolaning rivojlanishi va xulq-atvoridagi og'ishuvlarga olib kelgan asosiy omillarni aniqlash, ularni bartaraf etishga

qaratilgan mexanizmlarni belgilash, shuningdek, ta'limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy va sog'liqni tiklashga qaratilgan multidissiplinar integratsion dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar ko'p hollarda rivojlanish uchun zarur bo'lgan normal sharoitlardan mahrum bo'ladilar. Bu esa ularda psixologik va ijtimoiy jihatdan salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Ushbu tushuncha eng avvalo bolaning taqdiriga, uning noaniq, xavfli ijtimoiy kelajagiga e'tibor qaratadi. Bunday bola ikki yo'nalishdagi yordamga: bir tomondan – u tushib qolgan og'ir hayotiy yoki ijtimoiy xavfli vaziyatni o'zgartirishga; ikkinchi tomondan esa – uning ijtimoiy, psixologik va pedagogik muammolari hamda qiyinchiliklarini bosqichma-bosqich yengib o'tish va hal etishga qaratilgan ko'makka muhtoj.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan bolalar bilan ishlash kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Psixologik yordam, oila va maktab hamkorligi orqali bunday bolalarning ruhiy barqarorligini tiklash va ularni jamiyatga moslashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2017.
3. Davletshin M.G'. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2016.
4. Mavlonov A., To'raqulov X. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Yuldasheva N. Bola psixologiyasi va tarbiya masalalari. – Toshkent, 2020.
6. Zimbardo F., Gerrig R. Psixologiya va hayot. – Toshkent: Sharq, 2015.
7. Santrock J.W. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Piter, 2014.
8. Vygotskiy L.S. Bola rivojlanishining psixologik asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1984.
9. Bronfenbrenner U. Inson rivojlanish ekologiyasi. – Moskva, 2006.
10. UNICEF. Bolalarni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha metodik qo'llanma. – 2021.